



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SAYITQULOV ILHOM ABDUSALAMOVICH

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: ABDURAXMONOVA NILUFAR ZAYNOBIDDIN QIZI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260094
Xulosa raqami	1079
Xulosa sanasi	25.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Otchopar ko'chasi, 5-a-uy. Guvohnoma: MAS № 0000273, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70230104
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000273, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70230104 – Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70230104 – Literary Studies: Uzbek Literature
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70230104 – Литературоведение (узбекская литература)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (o'zbek adabiyoti bo'yicha)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	12 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz tumani, Otchopar ko'chasi, 5-a-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, ichki me'yoriy asoslar hamda ta'lim dasturini tashkil etish va boshqarishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 70230104 – "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)" magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul etib "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini belgilangan hamda uning vakolatlari, funksional vazifalari va mas'uliyati maxsus nizom asosida tartibga solingan aniqlandi. Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha vakolatli Kengash faoliyati samarali yo'lga qo'yilgani, ichki monitoring va sifat nazorati mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Ta'lim sifatini ta'minlash masalasining Kengash darajasida institutsional jihatdan mustahkamlanganligi boshqaruv tizimining barqarorligi va qabul qilinayotgan qarorlarning samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholandi. Shuningdek, ta'lim dasturining istiqbolli rivojlantirish rejasi ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish bo'yicha zarur tashkiliy choralar belgilanganligi aniqlandi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida taqdim etilgan o'quv-me'yoriy, o'quv-uslubiy hamda strategik hujjatlar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 70230104 – "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)" magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturini rejalashtirish, amalga oshirish va baholash mexanizmlari tizimli ravishda shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular magistratura bosqichiga qo'yilgan zamonaviy talablarga muvofiq ishlab chiqilgani qayd etildi. Magistratura darajasidagi adabiyotshunoslik

ta'limida adabiy-nazariy tahlilni ilmiy-tadqiqot metodologiyasi bilan uyg'unlashtirish magistrantlarning ilmiy tafakkuri va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekani aniqlandi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchiga "Adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (o'zbek adabiyoti bo'yicha)" kvalifikatsiyasi berilishi uning ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi va kutilayotgan o'quv natijalari belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda o'quv jarayonini tashkil etishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 70230104 – "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)" magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq shakllantirilgani aniqlandi. Ishchi o'quv rejalari va fan sillabuslari magistrantlarda kasbiy hamda shaxsiy kompetensiyalarni izchil rivojlantirishga yo'naltirilgani, ularning ta'lim dasturi maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan uyg'unligi ta'minlangani qayd etildi. Magistratura bosqichida matn tahliliga bag'ishlangan seminar mashg'ulotlari hamda mustaqil ilmiy-tadqiqot ishlari ulushining yetarli darajada tashkil etilishi adabiyotshunoslik yo'nalishi uchun muhim omil ekani aniqlandi, chunki kasbiy kompetensiyalar birlamchi manbalarni chuqur tahlil qilish va ilmiy yondashuvlarni qo'llash jarayonida shakllanadi. Shuningdek, o'quv natijalarini baholashning shaffofligi, xolisligi va akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlovchi mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani qayd etildi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda magistrantlar faoliyatini tashkil etishga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 70230104 – "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)" magistratura mutaxassisligi bo'yicha qabul jarayonlari, abituriyentlar uchun axborotlarning ochiqligi hamda qonunchilik talablariga muvofiqligi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ta'minlangani aniqlandi. O'qishga qabul qilish mezonlari, talabgorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilish va tekshirish tartiblari belgilangan bo'lib, qabul jarayonining shaffofligi va xolisligi ta'minlangani qayd etildi.

Qabul natijalari hamda zarur axborotlarning ochiq e'lon qilinishi manfaatdor tomonlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish va ta'lim jarayonining ochiqqligini ta'minlovchi ijobiy amaliyot sifatida baholandi. Shuningdek, magistrantlarni akademik, ilmiy va ma'muriy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Umuman, magistrantlar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar hamda inson resurslarini shakllantirish va boshqarish tizimiga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 70230104 – "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)" magistratura mutaxassisligi doirasida inson resurslarini boshqarish, professor-o'qituvchilarni jalb etish va ishga qabul qilish tizimi Vazirlar Mahkamasining tegishli 20-son qarori hamda institutning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq tashkil etilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilishning ochiq tanlov asosida amalga oshirilishi kadrlar salohiyatini oshirish, raqobat muhitini shakllantirish va ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijobiy amaliyot sifatida baholandi. Shuningdek, o'zbek adabiyoti yo'nalishida professor-o'qituvchilarning ilmiy nashrlar faolligi, ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy maktablarni rivojlantirishdagi ishtiroki magistratura ta'limi sifatini belgilovchi muhim omillardan biri ekani qayd etildi. Umuman, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida taqdim etilgan hujjatlar, moddiy-texnik baza hamda axborot-resurs ta'minotiga oid materiallar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida 70230104 – "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)" magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish va moddiy-texnik bazani barqaror rivojlantirish uchun zarur infratuzilma tizimli ravishda shakllantirilgani aniqlandi. Institut ixtiyorida zamonaviy o'quv binolari, o'quv auditoriyalari hamda keng qamrovli Axborot-resurs markazi mavjudligi, ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratilgani qayd etildi. Adabiyotshunoslik yo'nalishi uchun o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti manbalari fondining boyligi, ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda elektron matn resurslariga keng kirish imkoniyatining mavjudligi magistrantlarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekani aniqlandi. Umuman, moddiy-

texnik baza va axborot-resurs ta'minoti belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Elektron matn resurslari va manbalar fondini boyitish tavsiya etiladi.
- ✓ Magistrantlarning ilmiy nashr faolligini oshirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti manbalari hamda elektron matn resurslari fondini boyitish.
- ✓ Magistrantlarning ilmiy-tadqiqot va nashr faoliyatini rag'batlantirish.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning ilmiy nashr faolligini qo'llab-quvvatlash.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Termiz davlat pedagogika instituti"da 70230104 – "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul etib "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini belgilangani, uning vakolat va vazifalari maxsus nizom asosida tartibga solingani hamda ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha vakolatli Kengash faoliyati samarali yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Ta'lim dasturini rejalashtirish, amalga oshirish va baholash mexanizmlari tizimli ravishda shakllantirilgani, o'quv jarayoni Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq tashkil etilgani, qabul jarayonlari va ular bo'yicha axborotlarning ochiqligi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ta'minlangani tasdiqlandi. Professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining tegishli 20-son qarori

hamda ichki me'yoriy hujjatlar asosida ochiq tanlov orqali amalga oshirilishi, shuningdek, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zamonaviy o'quv binolari va keng qamrovli Axborot-resurs markazi mavjudligi qayd etildi. Barcha baholash yo'nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani e'tirof etildi. Umuman, ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlari bo'yicha belgilangan talablarni qanoatlantirishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha **MUVOFIQ** deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

